

Germaniyada Dual kasbiy ta'lim



Funded by



on the basis of a Decision
by the German Bundestag

Germaniya hukumatining Kasbiy ta'lim sohasida xalqaro
hamkorlik bo'yicha markaz



Germaniyada Dual kasbiy ta'lim

- 1. Asoslar va shart-sharoitlar**
- 2. Motivatsiyalar, qiziqishlar va jarayon**
- 3. Muvaffaqiyat modeli**




Dual kasbiy ta'lim:



Asoslar va shart-sharoitlar

Germaniya ta'lim tizimidagi Dual kasbiy ta'lim: umumiy ko'rinishi



Ishtirokchilar: Shogirdlar (nem. Auszubildende, Azubis)

- ▶ Har yili 1,22 million shogird
- ▶ 324 ta tan olingan shogirdlik kasblar bo'yicha

Du degani:

- ▶ hozirgi kunda barcha band bo'lgan shaxslarning 5 foizi - shogirdlar



Ishtirokchilar: ish beruvchilar

- ▶ Har yili ijtimoiy sug'urta badallari to'lanadigan xodimlarga ega bo'lgan barcha korxonalarning taxminan 18,7 foizi (2,1 milliondan taxminan 396 800 tasi) o'quv korxona sifatida shogirdlarga kasbiy ta'lim beradi
- ▶ Har yili taxminan 475 950 nafar yangi shogird qabul qilinadi
- ▶ Ularning 79 foizi kasbiy ta'limni bitirgach shu o'quv korxonaning o'zida doimiy ishga qabul qilinadi



Tizim birgalikda boshqariladi: biznes sektori, ijtimoiy sheriklar va davlat dual kasbiy ta'lim uchun shart-sharoitlarini birgalikda ta'minlaydilar

- ▶ Palatalar
- ▶ Ijtimoiy sheriklar (kasaba uyushmalari va ish beruvchilar tashkilotlari)
- ▶ Davlat

Palatalar va ijtimoiy sheriklar: korxonadagi kasbiy ta'lim mazmunini belgilaydilar va nazorat qiladilar

Davlat: huquqiy shart-sharoitlarni shakllantiradi va kasbiy ta'limning maktabdagi qismi uchun resurslarni ta'minlaydi



Asosiy ishtirokchilar: Palatalar – mas’ul idora


- ▶ O’quv korxonalarini tekshirish va ro'yxatga olish
- ▶ O’quv korxonadagi kasbiy ta’limni nazorat qilish va tekshirish
- ▶ Korxonaning kasbiy ta’lim beruvchi xodimlarini (ustozlarni) o’qitish
- ▶ Imtihonlarni tashkil etish
- ▶ Axborot tadbirlarini o'tkazish va maslahat berish



Asosiy ishtirokchilar: ijtimoiy sheriklar

Kasaba uyushmalari va ish beruvchilar tashkilotlari o'zaro hamda davlat bilan muzokara olib boradilar va kasbiy ta'limning korxonada o'tkaziladigan qismi uchun tegishli standartlarni kelishib oladilar

- ▶ Kasbiy ta'limning mazmuni
- ▶ Shogird oyligi
- ▶ Korxonadagi kasbiy ta'limni nazorat qilish
- ▶ Imtihon komissiyasida ishtirok etish



Asosiy ishtirokchilar: davlat – tartibga soluvchi

- ▶ ijtimoiy sheriklar bilan Kasbiy ta'lim nizomini (Ausbildungsordnung), ya'ni korxonalardagi o'quv jarayoniga tegishli qoidalarni muzokaralarda kelishib oladilar
- ▶ Kasb-hunar maktablaridagi kasbiy ta'limni belgilaydilar: Namunaviy o'quv dasturi (Rahmenlehrplan)
- ▶ Davlat kasbiy ta'lim muassasalarining tizimini moliyalashtiradi, tashkil etadi va nazorat qiladi
- ▶ Kasbiy ta'lim bo'yicha tadqiqotlar olib boradi va ularni qo'llab-quvvatlaydi → BIBB
- ▶ Shogirdlik o'rnini topishda (masalan, yoshlar, ishsizlar, imkoniyati cheklangan shaxslarga) yordam beradi



Umumiy asoslar: Standartlar

- ▶ Korxonalar va kasb-hunar maktablarida dual kasbiy ta'limni amalga oshirishni belgilaydi
- ▶ Sifat nazoratini va dual kasbiy ta'limni rivojlantirishni ta'minlaydi
- ▶ Germaniyaning butun xududida, ya'ni barcha o'lkalarida amal qiladi va majburiy hisoblanadi



Umumiy asoslar: Standartlar – ishlab chiqish jarayoni

- ▶ **1) Ish beruvchilar** korxonalarda yangi kasbiy vazifalar va malakalarni aniqlaydilar
- ▶ **2) Ijtimoiy sheriklar va hukumat** BIBB moderatorligida muzokara doirasida yangi Kasbiy ta'lim nizomlarini qabul qiladilar
- ▶ **3) Davlat** kasb-hunar maktablarida o'qitiladigan Namunaviy o'quv dasturlarini yangi belgilangan Kasbiy ta'lim nizomlariga moslashtiradi

Qabul qilingan standartlar Kasbiy ta'lim nizomlarida (korxonalar uchun) va Namunaviy o'quv dasturlarida (kasb-hunar maktablari uchun) belgilab qo'yiladi.



Umumiy asoslar: Standartlar – Kasbiy ta'lim nizomi (Ausbildungsordnung)

Umumiy maqsad 'kasbiy tamoyil'ga asoslanadi

Korxonadagi kasbiy ta'lim uchun kasbiy ta'lim standartlari Kasbiy ta'lim nizomi (Ausbildungsordnung) qoidalarida belgib qo'yiladi:

- ▶ Kasb nomi
- ▶ Kasb profili
- ▶ Mazmun-mavzular
- ▶ Davom etish vaqti va vaqt jadvali
- ▶ Imtihon talablari



Umumiy asoslar: Standartlar – Namunaviy o'quv dasturi (Rahmenlehrplan)

Kasb-hunar maktabidagi ta'lim kasbga tegishli zarur nazariy bilimlarni beradi va umumta'lim bilimlarini kengaytiradi.

Bu kasbiy ta'lim standartlari Namunaviy o'quv dasturida belgilab qo'yiladi:

- ▶ O'quv maqsadi
- ▶ Mazmun-mavzular
- ▶ O'zlashtiriladigan bilim sohalari



Huquqiy asoslar

Kasbiy faoliyat erkinligi Asosiy qonunning 12-moddasida kafolatlangan.

Korxonalarga tegishli qonunchilik

- ▶ **Kasbiy ta'lim to'g'risidagi qonun**
- ▶ **Hunarmandchilik to'g'risidagi qonun**
- ▶ Voyaga yetmaganlar mehnatini muhofaza qilish to'g'risidagi qonun
- ▶ Jamoa shartnomalari to'g'risidagi qonun
- ▶ Sanoat va savdo palatalari huquqlarini vaqtincha tartibga solish to'g'risidagi qonun
- ▶ Korxona boshqaruvi va xodimlar vakilligi to'g'risidagi qonun

Maktablarga tegishli qonunchilik

- ▶ Majburiy maktab ta'limi
- ▶ Federal o'lkalarning maktab to'g'risidagi qonunlari



Dual kasbiy ta'lim:



Motivatsiyalar, qiziqishlar va jarayon

Motivatsiya va chora-tadbirlar – davlat

Motivatsiya: Germaniyaga o'sish va rivojlanishni ta'minlash uchun malakali ishchilar kerak.

Xulosa: Biz dual ta'lim tizimini kuchaytirish va boshqarishimiz kerak.

Chora-tadbirlar:

- ▶ Huquqiy asoslarni yaratish va yangilash
- ▶ Boshqa manfaatdor tomonlarni jalb qilish
- ▶ Tizimni qayta ko'rib chiqish va rivojlantirish (jumladan BIBB tomonidan)




Motivatsiya va dual ta'limga ilk qadam – yoshlar

Motivatsiya: "Men ... bo'lishni xohlayman!"

Dual ta'limga ilk qadam:

- ▶ Ma'qul ish beruvchilarni qidirish va taklif etilayotgan shogirdlik o'rinlarini ko'rib chiqish
- ▶ Arizalarni yozish
- ▶ Agar mavjud bo'lsa, tanlov jarayoni
- ▶ O'quv korxonasini tanlash
- ▶ Shogirdlik shartnomasini imzolash



Motivatsiya va dual ta'limga ilk qadam – korxonalar

Motivatsiya: "Bo'sh ish o'rinlarni to'ldirishda aniqlikni xohlayman"

Dual ta'limga ilk qadam:

- ▶ O'quv korxona sifatida ro'yxatdan o'tish
- ▶ Shogirdlik o'rinlarini taklif qilish
- ▶ Arizalarni ko'rib chiqish
- ▶ Shogirdlarni tanlab olish
- ▶ Shogirdlik shartnomasini imzolash



Shogirdlik shartnomasi (Ausbildungsvertrag)

Kasbiy ta'lim ish beruvchi va shogird o'rtasida shogirdlik shartnomasi imzolanishi bilan boshlanadi.

Shogirdlik shartnomasi quyidagilarni belgilaydi:

- ▶ Kasbiy ta'lim davom etish vaqti
- ▶ Mazmuni
- ▶ Sinov muddati
- ▶ Mavzular va vaqt jadvali
- ▶ Shogird oyligi
- ▶ Ikki tomonning huquq va majburiyatlari



Ikkita o'quv maskanida dual o'qish


70% - **korxonada** kasbiy ta'lim

- ▶ Haqiqiy ish sharoitida tartibli ta'lim
- ▶ Shogirdlar aniq ish jarayonlarida ishtirok etadilar
- ▶ Shogirdlar oylik oladilar



30% - **kasb-hunar** maktabida darslar

- ▶ Sinf xonasida o'tkaziladigan darslar
- ▶ Kasbiy fanlar (2/3) va
- ▶ Umumta'lim fanlari (1/3)



Dual kasbiy ta'lim 2 yildan 3,5 yilgacha davom etadi.



Yakuniy imtihon

Yakuniy imtihon

- ▶ Palatalar tomonidan tashkil etiladi
- ▶ Nazariy va amaliy qismlardan iborat
- ▶ Imtihon komissiyasining tarkibi
 - ▶ Ish beruvchilar
 - ▶ Xodimlar (kasaba uyushmasi vakillari)
 - ▶ Kasb-hunar maktabi o'qituvchilari (= davlat vakillari)



Yakuniy imtihon

Kasbiy ta'limning bitiruv hujjati (Ausbildungszeugnis)

- ▶ Palata tomonidan beriladi
- ▶ Davlat tan olingan bitiruv hujjati

**Yakuniy imtixonni muvaffaqiyatli topshirish kasbiy ta'lim tugashini anglatadi.
So'ng kasbiy faoliyat boshlanadi.**




Kasbiy faoliyatni boshlash: Imkoniyatlar

Mehnat bozorida

- ▶ O'quv korxonasining o'zi bilan mehnat shartnomasi
- ▶ Boshqa korxona bilan mehnat shartnomasi
- ▶ Boshqa kasbiy sohada ishga joylashish

Kasbiy ta'limni davom ettirish

- ▶ Malaka oshirish va qo'shimcha ta'lim tadbirlari
- ▶ Oliy ta'lim („uchinchi bosqish ta'limi“)



Dual kasbiy ta'lim:



Muvaffaqiyat modeli

Qisqacha mazmuni

Jarayon

- ▶ Kasbiy ta'lim parallel ravishda korxonada (70%) va kasb-hunar maktabida (30%) o'tkaziladi: „dual“, ya'ni „ikki qismdan iborat“
- ▶ Mazmun-mavzulari va davom etish muddati belgilangan ta'lim (shogirdlik shartnomasi)
- ▶ Haqiqiy ish jarayoni doirasida kasb-hunarni o'rganish
- ▶ Yakuniy imtihon mustaqil komissiya oldida topshiriladi



Qisqacha mazmuni

Jarayon

- ▶ Davlat huquqiy asosni ta'minlaydi
- ▶ Davlat kasbiy ta'limning o'z ta'lim muassasalariga tegishli qismini tashkil etadi
- ▶ Palatalar va ijtimoiy sheriklar kasbiy ta'limning hajmi va mazmunini belgilaydilar
- ▶ Palatalar vakolatli idoralar sifatida korxonadagi ta'limni nazorat qiladilar



Muvaffaqiyat omillari

- ▶ Uzoq tarix davomida rivojlangan tizim
- ▶ Yuqori darajada ijtimoiy e'tirof
- ▶ Shogirdlar va korxonalar uchun o'zaro foydali vaziyat
- ▶ Malakali ishchilarga bo'lgan talabga moslangan ta'lim
- ▶ Kuchli tashkilotlar (palatalar, ijtimoiy sheriklar, kichik va o'rta korxonalar)
- ▶ Barcha ishtirok etayotgan tomonlar tizimni birga shakllantiradilar
- ▶ Tizimning talablar va o'zgarishlarga yuqori moslashuvchanligi



Ustunlar

- 1. Davlat, sanoat va ijtimoiy sheriklar o'rtasidagi hamkorlik**
- 2. Ish jarayonida o'rganish**
- 3. Umumiy tan olingan milliy standartlar**
- 4. Kasbiy ta'lim malakali xodimlar tomonidan amalga oshirilishi**
- 5. Maxsus tashkilotda mujassamlangan tadqiqot va maslahat**



Shogirdlar uchun foyda:

Dual kasbiy ta'lim – mehnat hayotiga ilk qadam bo'lib, mehnat faoliyatini boshlash uchun ideal ta'lim:

- ▶ Kasbga tegishli maxsus ko'nikma va malakalar
- ▶ Haqiqiy ish sharoitlari (uskunalar, jarayonlar, ish muhiti)
- ▶ Shogirdlik oyligi



Korxonalar uchun foyda:

Dual kasbiy ta'lim korxonani a'lo darajada tayyorlangan xodimlar bilan ta'minotini kafolatlaydi:

- ▶ Korxonaning talablariga javob beradigan malakali ishchilar (tashqi nomzodlardan farqli o'laroq)
- ▶ Mehnat unumdorligining oshishi (xarajatlar o'zini tezda oqlashi)
- ▶ Biznes sektorining kasbiy ta'lim standartlarini ishlab chiqishda faol ishtiroki
- ▶ Korporativ ijtimoiy mas'uliyatga (Corporate Social Responsibility, CSR) hissa



Davlat va jamiyat uchun foyda:

O'zaro manfaat, farovonlik va ijtimoiy hamjihatlik:

- ▶ Yuqori iqtisodiy samaradorlik va mahsuldorlik
- ▶ Uyg'unlahtirilgan mehnat bozori (taklif va talab)
- ▶ Yoshlarning ijtimoiy va iqtisodiy integratsiyasi
- ▶ Kasbiy ta'lim jarayoniga barcha manfaatdor tomonlarning ta'siri



Shogirdlar nuqtai nazaridan qiyinchiliklar

- ▶ Istalgan va mavjud shogirdlik o'rinlari o'rtasidagi farqlar (o'rinlar yetishmasligi)
- ▶ Dual kasbiy ta'limga kirish (ishtirok)
- ▶ Kasbiy talablarning ko'payishi
- ▶ Umrbo'yi ta'lim



Korxonalar nuqtai nazaridan qiyinchiliklar

- ▶ Kerak va mavjud bo'lgan shogirdlar o'rtasidagi farqlar (nomzodlar yetishmasligi)
- ▶ „Shogirdlikka tayyorlik darajasi“
- ▶ Nogironligi bo'lgan shaxslarning inkluziyasi
- ▶ Migrantlarning inkluziyasi



Davlat va jamiyat nuqtai nazaridan qiyinchiliklar

- ▶ Demografik o'zgarishlar
- ▶ Malakali ishchilarning tanqisligi oldindan aniqligi
- ▶ Yoshlarning ko'proq oliy ta'limga intilishi
- ▶ Mintaqaviy farqlar
- ▶ Inklyuziya



Faktlar va raqamlar

- ▶ BIBB Datenreport hisoboti ([link](#))
- ▶ BMBFSFJ vazirligining Kasbiy ta'lim to'g'risida hisoboti ([link](#))
- ▶ Federal statistika idorasi ([link](#))
- ▶ BMFTR vazirligining portali ([link](#))
- ▶ BIBB hisoboti 2/2025 ([link](#))
- ▶ IAB forumi ([link](#))

Kasbiy ta'lim standartlari

- ▶ BIBB broshyurasi: Kasbiy ta'lim nizomlari (Ausbildungsordnung) va ularni ishlab chiqish jarayoni ([link](#))
- ▶ Kasbiy ta'lim nizomlari va Namunaviy o'quv dasturlari misollari ([link](#))

Huquqiy hujjatlar

- ▶ Kasbiy ta'lim to'g'risidagi qonun ([link](#))
- ▶ Voyaga yetmaganlar mehnatini muhofaza qilish to'g'risidagi qonun ([link](#))
- ▶ Pallatalar to'g'risidagi qonun ([link](#))
- ▶ Jamoa shartnomalari to'g'risidagi qonun ([link](#))
- ▶ Korxona boshqaruvi va xodimlar vakilligi to'g'risidagi qonun ([link](#))

Veb-saytlar

- ▶ GOVET ([link](#))
- ▶ BMBFSFJ ([link](#))
- ▶ BMFTR ([link](#))
- ▶ BIBB ([link](#))

Qo'shimcha ma'lumot uchun aloqaning

- ▶ govet@bibb.de



BIBB tarkibidagi GOVET



Friedrich-Ebert-Allee 114-116
53113 Bonn, Germany



govet@bibb.de



+49 228 107 1818



www.govet.international

